V. I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

XO‘JAQULOV JONIBEK RAIMNAZAROVICH

METRIK GRAFLARDA KASR TARTIBLI DIFFUZIYA-TO‘LQIN TENGLAMALARI UCHUN TO‘G‘RI VA TESKARI MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2023

UDK: 517.958

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

XO‘JAQULOV JONIBEK RAIMNAZAROVICH

METRIK GRAFLARDA KASR TARTIBLI DIFFUZIYA-TO‘LQIN TENGLAMALARI UCHUN TO‘G‘RI VA TESKARI MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2023

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.2.PhD/FM870 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus(rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://kengash.mathinst.uz) va "ZiyoNet" ta'lim axborot tarmog'iga http://www.ziyonet.uz/ joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Karimov Erkinjon To'lqinovich** fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Rasmiy opponentlar:	**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Kadirkulov Baxtiyor Jalilovich fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil " 14 " noyabr soat 17:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (169 - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil " 27 " oktabr kuni tarqatildi.
(2023 yil " 27 " oktabrdagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

O'. A. Roziqov
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., professor

J. K. Adashev
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A. A. Azamov
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Ma’lumki, jahon miqyosida olib borilayotgan fizika, mexaika, kimyo, biofizika, biotexnologiya va ishlab chiqarishdagi ko‘plab ilmiy izlanishlar matematik fizikaning turli tenglamalar nazariyasi masalalariga keltiriladi. Tabiiyki, bu kabi masalalarning fizik ma’nolaridan kelib chiqib, tarmoqlangan sistemalardagi ko‘plab jarayonlar metrik graflarda ushbu tenglamalarni o‘rganishni taqazo etadi. Masalan, tarmoqlangan sohalardagi jarayonlarni modellashtirishda metrik graflarda berilgan xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar qo‘llaniladi. Asosan, grafning tarmoqlanish nuqtasida oqimning saqlanish sharti, ya’ni Kirxgoff sharti qo‘llanilib, u eng sodda holatda graf uchida yechimning uzluksizligini va yechim bir tomonlama hosilalarining yig‘indisi nolga tengligini ifodalaydi. Tibbiyot sohasida ham jarayonlarni matematik modellashtirishda graflarda berilgan differensial tenglamalar keng qo‘llaniladi. Masalan, asab tizimlarida impulsning tarqalish jarayonlarini modellashtirishda metrik graflarda berilgan diffuziya tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar ishlatiladi. Shuningdek, genlarda RNK bilan bog‘liq jarayonlarni modellashtirishda differensial tenglamalar zinapoyasimon graflarda qaraladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim fanlar sifatida matematika, fizika, geologiya va biologiya fanlariga alohida e’tibor berilmoqda. Matematika fanining rivojlanishi asnosida ushbu fanning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan, amaliy va nazariy xususiyatga ega differensial tenglamalar va matematik fizikani rivojlantirishiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, matematik fizika fanining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan kasr tartibli differensial tenglamalarni metrik graflarda o‘rganilish ham jadal rivojlanib bormoqda.

Ma’lumki, ko‘pgina tadqiqotlar subdiffuziya tenglamalarining o‘ng tomonini aniqlash bo‘yicha teskari masalalarga keltiriladi. Ba’zi amaliy masalalarda esa qaralayotgan vaqtning boshlang‘ch va oxirgi qiymatlari bilan bog‘liq optimal boshqaruv masalalariga keltiriladi. Metrik graflarda vaqt bo‘yicha kasr hosilali differensial tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarning yechimlarini topish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan bittasi hisoblanadi. Bunga metrik graflarda berilgan differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni o‘rganishga qaratilgan e’tiborni ham qo‘shish mumkin. Metrik graflarda berilgan turli tenglamalarni kvant fizikasi jarayonlariga qo‘llab, e’tiborga molik natijalar olingan. «Differensial tenglamalar va matematik fizika»[1] fanining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalar va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi. Shu bois, metrik graflarda berilgan differensial tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni yechish fanning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya ishining predmeti va tadqiqot obyektlari O‘zbekiston

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 292-son qarori.

Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789-sonli qarori, 2018-yil 27-apreldagi "Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-3682-sonli qarori va 2019 -yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V. I. Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387 sonli Prezident qarori hamda 2020-yil 7-maydagi "Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4708 sonli Prezident qarori, bundan tashqari, mazkur faoliyatga tegishli barcha normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Graflarda differensial tenglamalarni o‘rganish nisbatan yangi soha bo‘lib, o‘tgan asrning 80-yillarida rus olimi Merkov tomonidan graflarda berilgan issiqlik tarqalish tenglamasini o‘rganish bilan boshlangan.Graflarda differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar, Grin funksiyasi, differensial tengsizliklar kabi mavzularga bag‘ishlangan dastlabki monografiya rossiyalik matematik Y. V. Pokorniy va uning shogirdlari tomonidan chop etilgan. G. A. Sviridyuk va uning shogirdi V. V. Shemetova tomonidan graflarda differensial tenglamalarni o‘rganishga bag‘ishlangan “Graflarda Sobolevskiy tipidagi tenglamalarning bir sinfini tadqiq etish” mavzusidagi dastlabki dissertatsiya ishi himoya qilingan. Ushbu tadqiqot ishida Barenblatt-Jeltov-Kochina, Xoff, Oskolkova, Korpusov-Pletner-Sveshnikov tenglamalari uchun turli masalalar o‘rganilgan. Chex olimlari P.Eksner va P.Seba graflarda berilgan klassik tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni tadqiq etishgan. Bu sohadagi keyingi ilmiy natijalar U. Smilanskiy, P. Kuchmant, G. Berkolaiko R. Shreyder, A. Kostrikin va ularning shogirdlari tomonidan 2000-2010 yillarda chop etilgan. Ular asosan Shredinger tenglamasi uchun metrik graflarda spektral va sochilish masalalarini tatqiq qilishgan. Kvant grafi tushunchasi ham aynan shu mualliflar tomonidan ishlatila boshlangan. P Eksner va O. Postlar tomonidan ingichka tarmoqlangan sohalarda Shredinger operatori o‘rganilgan. Soha tarmoqlarining ko‘ndalang kesimi o‘lchovi nolga intilgandagi limit holatida kvant graflari hosil bo‘lishi ko‘rsatilgan. Joel Friedman and Jean-Pierre Tillichlar tomonidan "edge-based" Laplacian (yoki kvant grafi) grafi xos funktsiyalarining to‘liqligi o‘rganilgan.

Metrik graflarda Korteveg-de Friz va uning chiziqli qismi Eyri tenglamasi uchun bir qancha masalalar o‘rganilgan. Bu sohada hozirda mavjud ilmiy natijalar

Z. A. Sobirov, M. I. Ahmedov, N. Uesker, D. Noya, D. Magnola, K. Seyfert va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. A. S. Volkova tomonidan oddiy yulduzsimon issiqlik tarqalish tenglamasining umumlashgan yechimlari o‘rganilgan. Shuningdek, chegaraviy qiymatlar yordamida boshqaruv masalalari tatqiq qilingan. 2021 yilda M. R. Eshimbetov tomonidan “Metrik graflarda to‘lqin tenglamalari uchun Fokasning umumlashgan almashtirish usuli” mavzusida dissertatsiya ishi yozilgan. Mazkur ishda turli metrik graflarda Shredinger, issiqlik va to‘lqin tarqalish tenglamalari boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni yechishda Fokas usuli umumlashtirilgan. Kasr hosilali differensial tenglamalar nazariyasi so‘nggi bir necha o‘n yilliklarda, asosan, zamonaviy fan va texnologiyalarning ko‘plab sohalarida qo‘llanilishi tufayli katta ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘z navbatida, nazariyaning yetarlicha ommalashganligi mutaxassislar e’tiborini tortdi, bu esa kasr tartibli differensial tenglamalarning matematik jihatlari va ularni yechish usullari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlarga sabab bo‘ldi. Vaqt bo‘yicha kasr hosilali tenglamalar uchun turli masalalar ko‘plab mutaxassislar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, vatandoshlarimiz Sh. Alimov, R. Ashurov, B. Qodirqulov, D. Durdiyev, E. Karimov, Z. Sobirov, O. Abdullayev, T. Yo‘ldoshev va boshqalar ham bu yo‘nalishda yangi ilmiy natijalarni qo‘lga kiritishgan. XXI asr boshlarida kasr tartibli hosilaning qo‘llanilishi haqida bir qator ishlar nashr etilgan. A. Alixanov tomonidan olingan tengsizlik kasr tartibli hosilali differensial tenglamalar uchun aprior baho olishda muhim ahamiyatga ega. Rus matematigi A.V. Psxu tomonidan kasr hosilali tenglama uchun turli boshlang‘ich, boshlang‘ich-chegaraviy masalalar Grin funksiyalar usuli yordamida atroflicha o‘rganilgan.

Shuningdek, ko‘pgina tadqiqotlar kasr hosilali tenglamalarining o‘ng tomonini aniqlash bo‘yicha teskari masalalarga bag‘ishlangan. M.Ruzhansky, N. Tokmagambetov va B. T. Torebeklarning maqolasida elliptik qismi diskret spektrga ega bo‘lgan ixtiyoriy elliptik operator bo‘lgan hol uchun Kaputo kasr hosilali subdiffuziya tenglamasining o‘ng tomonini aniqlash bo‘yicha teskari masalasi o‘rganib chiqilgan va mualliflar umumlashgan yechimning mavjudligi va yagonaligini Furye usuli yordamida isbotlagan. Xususiy hosilali differensial tenglamalarning tartibini aniqlash bo‘yicha R. Ashurov va uning shogirdlari tomonidan ko‘plab teskari masalalar o‘rganilmoqda. Bundan tashqari, D. Durdiyev va uning shogirdlari Kasr hosilali differensial tenglamalar uchun noma’lum koeffitsiyent topishga oid turli xildagi teskari masalalar o‘rganishmoqda. Muhammad Ali, Sara Aziz va Salman A. Maliklarning ishlarida birinchi o‘zgaruvchi bo‘yicha $0<\gamma<1$ va ikkinchi o‘zgaruvchi bo‘yicha $1<\alpha<2$ oraliqlardagi kasr tartibli tenglama uchun ikki turdagi teskari manba masalalari ko‘rib chiqilgan. Birinchisi, fazoga bog‘liqlikni tiklash manba funksiyasini o‘rganishga, ikkinchisi vaqtga bog‘liq manba funksiyaini aniqlashga bag‘ishlangan. Butun va kasr hosilali differensial tenglamalar uchun nolokal masalalarni o‘rganish sohada muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, S. V. Pao reaksiya-diffuziya tenglamalari uchun, N. N. Shopolov issiqlik tarqalish tenglamasi uchun, J. M. Rassias va E. T. Karimovlar aralash parabolik tenglamalar uchun turli xildagi nolokal masalalarni tadqiq etishgan. R. Ashurov va Y. Fayzievlar vaqt bo‘yicha kasr hosilali subdiffuziya tenglamalari uchun, T. K. Yo‘ldoshev va B. J. Qodirqulovlar Xilfer kasr operatori bilan berilgan aralash

tipdagi to‘rtinchi tartibli differensial tenglama uchun, E. Karimov, M. Mamchuev, M. Rujanskiy, B. Toshtemirovlar qo‘sh tartibli Hilfer kasr differensial operatorlari ishtirok etgan aralash tipdagi tenglamalar uchun turli nolokal masalalar o‘rganganlar. Shuningdek, B. Toshtemirov tomonidan “Kasr tartibli integro-differensial operatorlar qatnashgan xususiy hosilali singulyar differensial tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalar” mavzusidagi PhD dissertatsiyasi himoya qilingan. Kasr tartibli differensial tenglamalarni metrik graflarda o‘rganish zamonaviy matematikaning eng qiziqarli sohalaridan biri hisoblanib yaqin yillarda o‘rganila boshlangan. V. Mehandiratta, M. Mehra tomonidan yulduzsimon metrik grafda kasr tartibli Kaputo operatori qatnashgan differensial tenglamalar sonli usullarda o‘rganganlar. P. S. Fosting, G. Mophou va boshqalar graflarda kasr tartibli tenglamalar uchun optimal boshqaruv masalalarini o‘rganganlar. Z. A. Sobirov va K. Rahimovlar tomonidan zinapoyasimon va yulduzsimon metrik graflarda subdiffuziya va Eyri tenglamalari uchun boshlang‘ich, boshlang‘ich-chegaraviy masalalar Grin funksiyasi va potensiallar usulida tadqiq qilingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Differensial tenglamalar va unga turdosh matematik sohalarning dolzarb muammolari” dasturi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi metrik graflarda berilgan vaqt bo‘yicha kasr tartibli differensial tenglamalar uchun to‘gri va teskari masalalarni qo‘yish va bu masalalarning yechimini topishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

metrik graflarda berilgan vaqt bo‘yicha kasr hosilali diffuziya-to‘lqin tenglamalari uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning yechimini topish;

yulduzsimon metrik grafda berilgan vaqt bo‘yicha kasr hosilali psevdo-parabolik tenglama uchun teskari masalalarni yechish;

daraxtsimon metrik graflarda berilgan vaqt bo‘yicha kasr hosilali diffuziya-to‘lqin tenglamasi uchun nolokal masalalarning yechimini topish;

daraxtsimon metrik graflarda berilgan vaqt bo‘yicha kasr hosilali psevdo-subdiffuziya tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning yechimini mavjud va yagonaligini isbotlash.

Tadqiqotning obyekti. Yulduzsimon metrik graflar, chekli sondagi intervallardan tashkil topgan daraxtsimon metrik graf, chekli intervallardan tashkil topgan zinapoyasimon metrik graf.

Tadqiqotning predmeti. Vaqt bo‘yicha nolokal masala, boshlang‘ich-chegaraviy masalalar, vaqt, fazoga bog‘liq noma’lum manbani topish teskari masalasi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida asosan o‘zgaruvchilarni ajratish (Furye), energiya integrallari va aprior baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat**:**

yulduzsimon graflarda berilgan vaqt bo‘yicha Kaputo va Prabhakar kasr tartibli hosila qatnashgan diffuziya tenglamalari uchun boshlang‘ich-chegaraviy

masalalarning yechimlari mavjud va yagonaligi isbotlangan;

yulduzsimon metrik grafda berilgan vaqt bo‘yicha kasr hosilali psevdo-parabolik tenglama uchun teskari masalalarning funksional qatorlar ko‘rinishidagi yechimlari topilgan;

daraxtsimon metrik graflarda berilgan vaqt bo‘yicha Hilfer kasr tartibli hosila ishtirok etgan diffuziya-to‘lqin tenglamasi uchun nolokal masalaning bir qiymatli yechilishi isbotlangan;

daraxtsimon metrik graflarda berilgan vaqt bo‘yicha kasr hosilali psevdo-subdiffuziya tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning yechimini mavjud va yagonaligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Olingan ushbu natijalar va dissertatsiyada qo‘llanilgan usullar oliy o‘quv yurtlarida magistratura talabalari va doktorantlar uchun o‘quv kurs sifatida o‘qitilishi mumkin. Bundan tashqari, metrik graflarda berilgan vaqt bo‘yicha kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy, nolokal va teskari masalalarni o‘rganishga oid dissertatsiyalarda, ilmiy maqolalarda hamda to‘lqin tarqalishi bilan bog‘liq turli jarayonlarni matematik modellarini ishlab chiqish uchun foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Natijalar spektral nazariya va o‘zgaruvchilarni ajratish (Furye) usuli yordamida olingan. Olingan barcha natijalar matematik jihatdan to‘g‘ri.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiya ishida olingan ilmiy natijalar vaqt bo‘yicha turli kasr tartibli differensial tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni yanada chuqurroq tadqiq qilishda qo‘llanilishi mumkin. Xususan, ushbu tadqiqot ishida olingan aprior baholar va ba’zi muhim tengsizliklardan kasr hosilali tenglamalar uchun qaralayotgan boshlang‘ich-chegaraviy va nolokal masalalarning yechimini yagonaligini isbotlashda foydalanish mumkin. Bundan tashqari, olingan natijalardan metrik graflarda issiqlik tarqalishining va ko‘plab tenglamalar uchun tarmoqlangan strukturalarda to‘lqin tarqalishining xossalarini o‘rganish uchun foydalanish mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar to‘lqin tarqalishining tarmoqlanish nuqtasidan o‘tish va qaytish koeffitsientini topishda, tarmoqlangan maydonlarda to‘lqin jarayonlarini tahlil qilishda, asab tizimlarida impuls tarqalishi jarayonini modelleshtirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Metrik graflardagi kasr hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar bo‘yicha olingan natijalar asosida:

metrik graflarning tarmoqlangan sohalarida diffuziya-to‘lqin tenglamasi uchun nolokal masalaning bir qiymatli yechimidan №15-198 RG/PHYS/AS_I-FR 3240287086 raqamli “Antizotropik suyuqliklarda relaksion jarayonlarini eksprimental o‘rganish: tebranish va yo‘nalish spektrlarini tahlil qilish” mavzusidagi xalqaro loyihada graf qirralarining uchrashish nuqtasidagi sochilish parametrlarini hisoblashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2023 yil 30

avgustdagi 04/11-5125-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanishi tarmoqlanish nuqtasida o‘tkazuvchanlik va qaytish koeffitsientlarini topish imkonini bergan;

yulduzsimon grafda Hilfer kasr integro-differentsiallash operatori qatnashgan subdiffuziya tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning yechimidan AR09259394 raqamli “Musbat operatorli evolyutsiya tenglamalari uchun teskari masalalar” mavzusidagi xorijiy loyihada kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun teskari masalalarni yechishda foydalanilgan (Matematika va Matematik modellashtirish institutining 2023 yil 5-sentyabrdagi 01-06/128-sonli ma’lumotnomasi, Qozog‘iston). Ilmiy natijaning qo‘llanishi musbat operator qatnashgan kasr tartibli xususiy hosilali evolyutsiya tenglamalari uchun teskari masalalarni yechishni imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy anjumanlarda, jumladan, 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, shundan 6 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilgan, 2 tasi SCOPUS va WoS ma’lumotlar bazalarida indekslangan jurnallarda chop etilgan, 4 tasi respublika jurnallarida chop etilgan maqolalar va 10 tasi tezisdir.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 126 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarining rivojlanishini ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Dastlabki ma’lumotlar**” deb nomlangan birinchi bobida yordamchi ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, ushbu tadqiqot ishini tushunish qulay bo‘lishi uchun yaratilgan. Bu yerda yangi natijalar keltirilmagan. Bu bobda biz kasr tartibli hosilalar va integrallar, Mittag-Leffler va Prabhakar tipidagi funksiyalarining asosiy xossalarini keltiramiz. Bundan tashqari, vaqt bo‘yicha kasr tartibli hosila ishtirok etgan differensial tenglamalar uchun Koshi masalasi yechimlarini qaraymiz. Shuningdek, metrik graflar, metrik graflarda qaralgan spektral masalalarni keltiramiz.

Birinchi bobdagi ba’zi ta’riflar va tasdiqlarni keltirib o‘tamiz.

1-ta'rif. $f(x)$ funksiyaning Riman-Liuvill α $(\alpha>0)$ kasr tartibli integrali quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$\left(I_{at}^{\alpha}f\right)(t)=\frac{1}{\Gamma(\alpha)}\int_{a}^{t}\frac{f(\tau)d\tau}{(t-\tau)^{1-a}}\ ,\ t>a,\ a\in\mathbb{R},\ n-1<\alpha<n,\ n\in\mathbb{N}.$$

2-ta'rif. Quyidagi

$$\left(D_{at}^{\alpha}f\right)(t):=\left(\frac{d}{dt}\right)^{n}\left(I_{at}^{n-\alpha}f\right)(t)=\frac{1}{\Gamma(n-\alpha)}\left(\frac{d}{dt}\right)^{n}\int_{a}^{t}\frac{f(\tau)d\tau}{(t-\tau)^{\alpha-n+1}}\ ,t>a$$

va

$$\left({}_{C}D_{at}^{\alpha}f\right)(t):=\left(I_{at}^{n-\alpha}\left(\frac{d}{dt}\right)^{n}f\right)(t):=\frac{1}{\Gamma(n-\alpha)}\int_{a}^{t}\frac{f^{(n)}(\tau)}{\left(t-\tau\right)^{\alpha-n+1}}d\tau\ ,\ t>a$$

munosabat bilan aniqlangan operatorlar mos ravishda Riman-Liuvill va Kaputo kasr tartibli hosilalari deyiladi, bu yerda $n\in\mathbb{N}$ and $n-1<\alpha<n$.

Kaputo va Riman-Liuvill kasr hosilalari orasida quyidagi bog'lanish mavjud:

$$\left(D_{at}^{\alpha}f\right)(t)=\sum_{k=0}^{n-1}\frac{f^{(k)}(a)}{\Gamma(1+k-\alpha)}(t-a)^{k-\alpha}+\left({}_{C}D_{at}^{\alpha}f\right)(t),\ \ t>a,$$

bu yerda $n\in\mathbb{N}$ va $n-1<\alpha<n$.

3-ta'rif. $\alpha\,(n-1<\alpha\le n)$ *tartibli* $0<\mu\le 1$ *tipdagi Hilfer kasr tartibli hosilasi quyidagicha aniqlanadi:*

$$D_{at}^{\alpha,\mu}f(t)=I_{at}^{\mu(n-\alpha)}\left(\frac{d}{dt}\right)^{n}I_{at}^{(1-\mu)(n-\alpha)}f(t).$$

4-ta'rif. $f(t)$ funksiyaning Prabhakar β $(\beta>0)$ kasr tartibli integrali quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$${}^{P}I_{at}^{\alpha,\beta,\gamma,\delta}f(t)=\int_{a}^{t}(t-\tau)^{\beta-1}E_{\alpha,\beta}^{\gamma}\left(\delta(t-\tau)^{\alpha}\right)f(\tau)d\tau\ ,\ t>a.$$

5-ta'rif. β tartibli regulyarizatsiyalashtirilgan Prabhakar kasr tartibli hosilasi quyidagi ko'rinishda aniqlanadi:

$${}^{PC}D_{at}^{\alpha,\beta,\gamma,\delta}f(t)={}^{P}I_{at}^{\alpha,m-\beta,-\gamma,\delta}\frac{d^{m}}{dt^{m}}f(t),$$

bu yerda $\alpha>0$, $m-1<\beta<m$, $\gamma,\delta\in R$.

1-lemma. Aytaylik, $v(t)$ funksiya $[0,T]$ kesmada absolyut uzluksiz bo'lsin. U holda quyidagi tengsizlik o'rinli:

$$v(t)\,{}_{C}D_{0t}^{\alpha}v(t)\ge\frac{1}{2}\,{}_{C}D_{0t}^{\alpha}v^{2}(t).\quad 0<\alpha<1.$$

2-lemma. Aytaylik, nomanfiy $y(t)$ funksiya deyarli barcha $t\in[0,T]$ lar uchun absolyut uzluksiz funksiya bo'lib, quyidagi

$${}_{C}D_{0t}^{\alpha}y(t)\le c_{1}y(t)+c_{2}(t),\ 0<\alpha\le 1$$

tengsizlikni qanoatlantirsin va $c_1>0$, $c_2(t)$ funksiya esa $[0,T]$ kesmada nomanfiy, integrallanuvchi funksiya bo'lsin. U holda quyidagi

$$y(t) \le y(0)E_\alpha\left(c_1 t^a\right) + \Gamma(\alpha)E_{\alpha,\alpha}\left(c_1 t^\alpha\right) I_{0t}^\alpha c_2(t)$$

tengsizlik o‘rinli bo‘ladi. Bu yerda $E_\alpha(z)$ va $E_{\alpha,\beta}(z)$ funksiyalar mos ravishda bir va ikki parametrli Mittag–Leffler funksiyalari. Ushbu funksiyalar quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$E_{\alpha,\beta}(z) = \sum_{n=0}^{\infty} \frac{z^n}{\Gamma(\alpha n + \beta)},$$

bu yerda $\alpha > 0$, $\beta \in \mathbb{C}$ va $z \in \mathbb{C}$, agar $\beta = 1$ bo‘lsa ushbu funksiya $E_{\alpha,1}(z) = E_\alpha(z)$ ko‘rinishda yoziladi.

6-ta’rif. Quyidagi

$$E_{\alpha,\beta}^{\gamma}(z) = \sum_{n=0}^{\infty} \frac{(\gamma)_n}{\Gamma(\alpha n + \beta)} \frac{z^n}{n!}$$

funksiya Prabhakar funksiyasi yoki umumlashgan Mittag-Leffler funksiyasi deb ataladi, bu yerda $\alpha, \beta, \gamma \in \mathbb{C}$, $Re(\alpha), Re(\beta) > 0$ and $(\gamma)_n$ - Pohgammer belgisi.

7-ta’rif. Ikki o‘zgaruvchili Mittag-Leffler funksiyasi quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$E_2(x,y) = \left(\begin{matrix} \gamma_1, & \alpha_1, & \beta_1; & \gamma_2, & \alpha_2, \\ \delta_1, & \alpha_3, & \beta_2; & \delta_2, & \alpha_4; & \delta_3, & \beta_3 \end{matrix} \middle| \begin{matrix} x \\ y \end{matrix} \right) =$$

$$= \sum_{n=0}^{\infty}\sum_{m=0}^{\infty} \frac{1}{\Gamma(\delta_1 + \alpha_3 m + \beta_2 n)} \frac{\Gamma(\gamma_1 + \alpha_1 m + \beta_1 n)}{\Gamma(\gamma_1)} \frac{\Gamma(\gamma_2 + \alpha_2 m)}{\Gamma(\gamma_2)} \frac{x^m}{\Gamma(\delta_2 + \alpha_4 m)} \frac{y^n}{\Gamma(\delta_3 + \beta_3 n)},$$

bu yerda $\gamma_1,\ \gamma_2,\ \delta_1,\ \delta_2,\ \delta_3,\ x, y \in \mathbb{C}$, $min\{\alpha_1, \alpha_2, \alpha_3, \alpha_4, \beta_1, \beta_2, \beta_3\} > 0$.

Dissertatsiyaning asosiy natijalari ikkinchi bobdan boshlanadi. “**Yulduzsimon graflarda kasr tartibli differensial tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalar**” deb nomlanuvchi ikkinchi bob uchta paragrafdan iborat bo‘lib, birinchi va ikkinchi paragraflarda yulduzsimon grafda Kaputo va Prabhakar kasr tartibli hosila bilan berilgan issiqlik tarqalish tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar o‘rganilgan.

Aytaylik, Γ graf $O(0,0)$ nuqtadan chiquvchi uchta qirradan tashkil topgan bo‘lsin. Ushbu qirralarning koordinatalari 0 dan $l_k\ (0 < l_k < +\infty,\ k = 1,2,3)$ gacha aniqlangan bo‘lsin. Graf qirralarini $B_k = (0, l_k)$ orqali belgilaymiz.



1-rasm.

Biz $B_k \times (0,T)$ sohada Kaputo hosilasi bilan berilgan quyidagi kasr tartibli differensial tenglamani qaraymiz:

$$ {}_C D_{0t}^{\alpha} u^{(k)}(x,t) - u_{xx}^{(k)}(x,t) = f^{(k)}(x,t), \quad x \in B_k, \quad t \in (0,T), \; k = 1,2,3, \qquad (1) $$

1-masala. (1) tenglamaning

$$ u^{(1)}(0,t) = u^{(2)}(0,t) = u^{(3)}(0,t), \qquad (2) $$

$$ u_x^{(1)}(0,t) + u_x^{(2)}(0,t) + u_x^{(3)}(0,t) = 0, \; t \in [0,T], \qquad (3) $$

$$ u^{(k)}(l_k,t) = 0, \; t \in [0,T], \; k = 1,2,3, \qquad (4) $$

$$ u^{(k)}(x,0) = \varphi_k(x), \; x \in \overline{B}_k, \; k = 1,2,3 \qquad (5) $$

shartlarni qanoatlantiruvchi $u^{(k)}(x,t)$ yechimi topilsin. Bu yerda $\varphi_k(x)$ *va* $f^{(k)}(x,t)$ - berilgan funksiyalar.

Quyidagi tasdiq o‘rinli:

1-teorema. *Agar* $\varphi_k(x)$ *va* $f^{(k)}(x,t)$ *funksiyalar* $\varphi_k(x) \in C^1[0,l_k]$, $f^{(k)}(x,t) \in C_{x,t}^{1,0}\left([0,l_k] \times (0,T)\right)$ *sinflardan olingan bo‘lsa hamda* $\varphi_k''(x)$, $\dfrac{\partial^2}{\partial x^2} f^{(k)}(\cdot,t)$ *funksiyalar mos ravishda* $(0,l_k)$ *va* $B_k \times (0,T)$ *sohalarda absolyut integrallanuvchi bo‘lsa, bundan tashqari, (2)-(4) shartlar* $\varphi_k(x)$ *va* $f^{(k)}(x,t)$ *funksiyalar uchun ham bajarilsa, u holda qaralayotgan (1)-(5) masalaning yagona yechimi mavjud bo‘ladi va uni* $\overline{B}_k \times [0,T]$ *sohada tekis yaqinlashuvchi quyidagi funksional qator ko‘rinishida yozish mumkin:*

$$ u(x,t) = \sum_{n=1}^{\infty} \left(\int_0^t (t-z)^{\alpha-1} E_{\alpha,\alpha}[-\lambda_n^2 (t-z)^{\alpha}] f_n(z) dz + \varphi_n E_{\alpha,1}(-\lambda_n^2 t^{\alpha}) \right) X_n(x). $$

Bu yerda φ_n va $f_n(t)$ mos ravishda $\varphi_k(x)$ va $f^{(k)}(x,t)$ funksiyalarning Furye koeffitsiyentlari, λ_n - xos sonlar.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida yulduzsimon grafda Prabhakar kasr tartibli hosilasi bilan berilgan issiqlik tarqalish tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar o‘rganilgan.



2-rasm.

Berilgan Γ yulduzsimon grafda quyidagi

$$ {}^{PC}D_{0t}^{\alpha,\beta,\gamma,\delta}u^{(k)}(x,t)-u_{xx}^{(k)}(x,t)=f^{(k)}(x,t),\ x\in B_k,\ \ t\in(0,T)\ k=\overline{1,j} \qquad (6) $$

tenglamani qaraylik, bu yerda $\alpha>0$, $0<\beta<1$, $\gamma,\delta\in R$, $f^{(k)}(x,t)$ berilgan funksiyalar.

2-masala $B_k\times(0,T)$ sohada shunday $u^{(k)}(x,t)$ funksiya topilsinki, (6) tenglamani hamda quyidagi:

$$ u^{(1)}(0,t)=u^{(2)}(0,t)=...=u^{(j)}(0,t),\quad t\in[0,T], \qquad (7) $$

$$ u_x^{(1)}(0,t)+u_x^{(2)}(0,t)+...+u_x^{(j)}(0,t)=0,\quad t\in[0,T], \qquad (8) $$

$$ u^{(k)}(l_k,t)=0,\ t\in[0,T],k=\overline{1,j}, \qquad (9) $$

$$ u^{(k)}(x,0)=\varphi_k(x),\ x\in\overline{B}_k\ ,\ k=\overline{1,j}\ , \qquad (10) $$

shartlarni qanoatlantirsin.

Qaralayotgan (6)-(10) masala yechimining yagonaligi quyidagi lemma yordamida ko‘rsatiladi:

2-lemma. Shunday t_1 soni mavjudki, $[0,t_1]$ oraliqda absolyut uzluksiz har qanday $v(t)$ funksiya uchun quyidagi tengsizlik o‘rinli:

$$ v(t)\cdot{}^{P}D_{0t}^{\alpha,\beta,\gamma,\delta}v(t)\ge\frac{1}{2}{}^{P}D_{0t}^{\alpha,\beta,\gamma,\delta}v^2(t),\qquad 0<\beta<1. $$

Asosiy natija quyidagi tasdiqda keltirilgan:

2-teorema. *Berilgan* $\varphi_k(x)$ *va* $f^{(k)}(x,t)$ *funksiyalar* $\varphi_k(x)\in C^5[0,l_k]$, $f^{(k)}(x,t)\in C_{x,t}^{2,0}\left([0,l_k]\times[0,T]\right)$ *sinflarda aniqlangan bo‘lib,* $\varphi_k^{(6)}(x)$, $\frac{\partial^3}{\partial x^3}f^{(k)}(x,t)$ *funksiyalar mos ravishda* $(0,l_k)$ *va* $B_k\times(0,T)$ *sohalarda absolyut integrallanuvchi bo‘lsa, bundan tashqari (7)-(9) shartlar* $\varphi_k(x)$, $\varphi_k''(x)$, $\varphi_k^{IV}(x)$, $f^{(k)}(x,t)$ *funksiyalar uchun, (7), (9) shartlar esa* $\frac{\partial^2}{\partial x^2}f^{(k)}(x,t)$ *funksiyalar uchun bajarilsin, u holda qaralayotgan masalaning yagona yechimi mavjud bo‘ladi.*

Mazkur masalaning yechimi ikki o‘zgaruvchili Mittag-Leffler funksiyasi orqali ifodalangan, $\overline{B}_k\times[0,T]$ sohada tekis yaqinlashuvchi quyidagi funksional qator ko‘rinishida topiladi:

$$ u^{(k)}(x,t)=\sum_{n=1}^{\infty}\left(\varphi_n+\varphi_n\lambda_n^2\Gamma(\gamma)t^{\beta}E_2\left(\begin{matrix}&\gamma&\gamma&1&1&0\\ \beta+1&\beta&\alpha&\gamma&\gamma&1&1\end{matrix}\middle|\begin{matrix}\lambda^2t^{\beta}\\ \delta t^{\alpha}\end{matrix}\right)+\right. $$

$$ \left.+\Gamma(\gamma)\int_0^t(t-\tau)^{\beta-1}f_n(\tau)E_2\left(\begin{matrix}&\gamma&\gamma&1&1&0\\ \beta&\beta&\alpha&\gamma&\gamma&1&1\end{matrix}\middle|\begin{matrix}\lambda_n^2t^{\beta}\\ \delta t^{\alpha}\end{matrix}\right)d\tau\right)X_n^{(k)}(x), $$

bu yerda φ_n va $f_n(t)$ mos ravishda $\varphi_k(x)$ va $f^{(k)}(x,t)$ funksiyalarning Furye koeffitsiyntlari.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafida esa yulduzsimon grafda Kaputo kasr hosilasi bilan berilgan psevdoparabolik tenglama uchun ikkita teskari masala

o‘rganilgan.

Berilgan Γ grafning har bir qirrasida ushbu kasr hosilali differensial tenglama:

$$ {}_C D_{0t}^{\alpha} u^{(k)}(x,t) = a u_{xx}^{(k)}(x,t) + b\, {}_C D_{0t}^{\alpha} u_{xx}^{(k)}(x,t) + c u^{(k)}(x,t) + f^{(k)}(x,t) + h^{(k)}(x,t), \quad (11) $$

bu yerda $x \in B_k$, $0 < t < T$, $0 < \alpha < 1$, a, b, c -o‘zgarmas sonlar, hamda quyidagi

$$ u^{(1)}(0,t) = u^{(2)}(0,t) = ... = u^{(j)}(0,t), \quad t \in [0,T], \quad (12) $$

$$ u_x^{(1)}(0,t) + u_x^{(2)}(0,t) + ... + u_x^{(j)}(0,t) = 0, \quad t \in [0,T], \quad (13) $$

$$ u_x^{(k)}(l_k,t) = 0,\ t \in [0,T], k = \overline{1,j}, \quad (14) $$

$$ u^{(k)}(x,0) = \varphi_k(x), \quad x \in B_k\ ,\ k = \overline{1,j} \quad (15) $$

shartlar berilgan bo‘lsin.

(11)-(15) masalani to‘g‘ri masala sifatida o‘rganish mumkin. Biz (11)-(15) boshlang‘ich-chegaraviy masalaga bog‘liq bo‘lgan ikkita teskari masala o‘rganamiz. Birinchi teskari masala fazoviy o‘zgaruvchiga bog‘liq bo‘lgan manba funksiyasini tiklash bilan bog‘liq, ya’ni $h^{(k)}(x,t) = h^{(k)}(x) g(t)$. Bu yerda $h^{(k)}(x)$-noma’lum, $g(t)$-berilgan ma’lum funksiyalar.

Qiziqarli bo‘lgan ikkinchi teskari masala-vaqtga bog‘liq bo‘lgan manba funksiyasini tiklanishi, ya’ni $h^{(k)}(x,t) = g(t) h^{(k)}(x)$. Bu yerda $h^{(k)}(x)$-berilgan, $g(t)$-noma’lum funksiyalar.

3-masala. $B_k \times (0,T)$ sohada shunday $\left(u^{(k)}(x,t), h^{(k)}(x,t)\right)$ funksiyalar juftligi topilsinki, bu juftlik (11) tenglamani, (12)-(15) hamda quyidagi qo‘shimcha

$$ u^{(k)}(x,T) = \psi_k(x), x \in B_k, k = \overline{1,j}. \quad (16) $$

shartlarni qanoatlantirsin, bu yerda $\psi_k(x)$ - berilgan funksiyalar.

3-teorema: *Aytaylik* $f^{(k)}(x,t)$ *va* $\varphi_k(x), \psi_k(x)$ - *funksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:*

(1) $f^{(k)}(x,t) \in C\left([0,l_k] \times (0,T)\right)$ va $\dfrac{\partial}{\partial x} f^{(k)}(x,t)$ funksiyalar $B_k \times (0,T)$ sohada absolyut integrallanuvchi,

(2) $\varphi_k(x), \psi_k(x) \in C^2[0,l_k]$, $\varphi_k''(x)$, $\psi_k''(x)$ funksiyalar $(0,l_k)$ oraliqda absolyut integrallanuvchi,

(3) (12)-(14) shartlar $\varphi_k(x)$ *funksiyalar uchun, (12) shart* $\varphi_n''(x)$ *va* $f^{(k)}(x,t)$ *funksiyalar uchun o’rinli bo’lsin,*

(4) (12)-(14) shartlar $\psi_k(x)$ *funksiyalar uchun, (12) shart* $\psi_n''(x)$ *funksiyalar uchun o’rinli bo’lsin*.

U holda (11)-(16) masalaning yagona yechimi mavjud bo‘ladi.

(11)-(16) masalaning yechimlari $[0,l_k] \times [0,T]$ sohada tekis yaqinlashuvchi qatorlar ko‘rinishida quyidagicha topilgan:

$$ u^{(k)}(x,t) = \sum_{n=1}^{\infty} \frac{1}{1+b\lambda_n^2} \left[\frac{(1+b\lambda_n^2)[\psi_n - \varphi_n E_{\alpha}\left(-\mu_n^2 T^{\alpha}\right)] - F_n(T)}{G_n(T)} G_n(t) + \right. $$

$$+F_n(t)+\varphi_n E_\alpha\left(-\mu_n^2 t^\alpha\right)]X_n^{(k)}(x),$$

$$h^{(k)}(x,t)=\sum_{n=1}^{\infty}\left[\frac{(1+b\lambda_n^2)[\psi_n-\varphi_n E_\alpha\left(-\mu_n^2 T^\alpha\right)]-F_n(T)}{G_n(T)}g(t)X_n^{(k)}(x),\right.$$

bu yerda $\mu_n^2=\dfrac{a\lambda_n^2-c}{1+b\lambda_n^2}$,

$$F_n(t)=\int_0^t(t-\tau)^{\alpha-1}E_{\alpha,\alpha}\left[-\mu_n^2(t-\tau)^\alpha\right]f_n(\tau)d\tau,$$

$$G_n(t)=\int_0^t(t-\tau)^{\alpha-1}E_{\alpha,\alpha}\left[-\mu_n^2(t-\tau)^\alpha\right]g(\tau)d\tau.$$

4- masala. $B_k\times(0,T)$ sohada shunday $\left(u^{(k)}(x,t),h^{(k)}(x,t)\right)$ funksiyalar juftligi topilsinki, Bu juftlik (11) tenglamani, (12)-(15) hamda quyidagi integral tipdagi

$$\int_\Gamma u(x,t)dx=\Phi(t),\quad t\in[0,T]. \tag{17}$$

shartlarni qanoatlantirsin, bu yerda $\Phi(t)$- berilgan ma'lum funksiya.

4-teorema. *Aytaylik* $f^{(k)}(x,t)$ *va* $\varphi_k(x)$, $h^{(k)}(x)$ *funksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:*

(1) $h^{(k)}(x)\in C[0,l_k]$, $\dfrac{\partial}{\partial x}h^{(k)}(x)$*-funksiyalar* $(0,l_k)$ *oraliqda absolyut integrallanuvchi,*

(2) *(12) shart* $h^{(k)}(x)$ *funksiyalar uchun o'rinli bo'lsin,*

(3) *3-teoremaning (1)-(3) shartlarini qanoatlantirsin.*

U holda 2- teskari masalaning yagona yechimi mavjud.

